Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



# QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

## 2023- YIL YANVAR-MART OYLARI

**(dastlabki ma’lumot)**



# 2023- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3 344,9 mlrd. so‘mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 3 239,0 mlrd. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 41,6 mlrd. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 64,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi.



***Ma’lumot uchun:***

***YAIM (YAQQ) tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 31,4 %ni tashkil etdi. Mazkur tarmoqning YAIM mutlaq o‘sish sur‘atiga ta’siri 1,6 f.p.ni tashkil etdi.***

## O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar–**104,8%**

O‘rmon xo‘jaligi – **101,8%**

Baliqchilik xo‘jaligi – **185,2%**

2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 105,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 104,8 % ni, o‘rmon xo‘jaligi – 101,8 % ni, baliqchilik xo‘jaligi – 185,2 % ni tashkil qildi.

***Ma'lumot uchun:***

*Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.*

- ✓ *Ovlangan baliq — 202,5 %*
- ✓ *Sabzavot — 134,9 %*
- ✓ *Go'sht (tirik vaznda) — 110,2 %*
- ✓ *Jun — 106,8 %*
- ✓ *Qorako'l teri — 104,6 %*

## Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,8 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2022- yilning yanvar-mart oylarida 97,7 %), 1,3 %i – o'rmon xo'jaligi (1,2 %), 1,9 %i – baliqchilik xo'jaligi (1,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, *mlrd. so‘m*

2023- yilning yanvar-mart oylarida, hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Qo‘shko‘pir (405,8 mlrd. so‘m), Urganch (364,8 mlrd. so‘m) va Gurlan (343,7 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.




Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahrini (15,7 mlrd.so‘m), Tuproqqal’a tumanini (76,6 mlrd.so‘m) hamda Urganch shahrini (127,7 mlrd.so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

***Ma'lumot uchun:***

*2023- yilning yanvar-mart oylarida* Qo'shko'pir, Urganch *va* Gurlan *tumanlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.*

*Aksincha, go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida* Xiva shahri va Tuproqqal'a *tumani kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.*

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**



**Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulishga ega hududlar**




**Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati, % da**




Yuqori o‘sish sur’atlari Qo‘shko‘pir (145,8 %), Bog‘ot (107,3 %) va Xiva (105,5 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch (98,6 %), Hazorasp (99,8 %) va Shovot (100,0 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.



## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

| | *Hajmi mlrd. so‘m* | *O‘sish sur’ati, % da* | *Jamiga nisbatan ulushi, % da* |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Urganch sh** | 126,7 | **100,3** | **99,3** |
| Xiva sh | 15,6 | 105,4 | 99,5 |
| Bog‘ot | 286,6 | 107,3 | 99,0 |
| Gurlan | 342,2 | 100,7 | 99,6 |
| Qo‘shko‘pir | 396,5 | 145,3 | 97,7 |
| Urganch | 363,4 | 98,6 | 99,6 |
| Hazorasp | 267,0 | 99,9 | 99,7 |
| Tuproqqal’a | 76,4 | 105,4 | 99,6 |
| Xonqa | 314,9 | 101,0 | 99,4 |
| Xiva | 336,1 | 105,3 | 99,5 |
| Shovot | 291,6 | 100,9 | 98,7 |
| Yangiariq | 251,3 | 97,5 | 83,3 |
| Yangibozor | 200,4 | 104,1 | 99,4 |

Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 97,7 % ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichni hududlar bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga Hazorasp (99,7 %), Gurlan (99,6 %), Urganch (99,6 %), Tuproqqala (99,6 %) tumanlarini va Xiva shahrini (99,5 %) keltirishimiz mumkin,

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari



***Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari*** *— hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.*

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 194,3 mlrd, so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 154,3 mlrd.so‘mni (117,3 %), chorvachilik mahsulotlari –3 040,0 mlrd, so‘mni (104,2 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi







**Dehqonchilik mahsulotlari**

**Chorvachilik mahsulotlari**



# QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI




Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-mart

***3194,3***
mlrd. so‘m

O‘sish surati
***104,7 %***

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da






Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Qo‘shko‘pir (11,81 %), Urganch (11,1 %) va Gurlan (10,5 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi,

Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari oʻsish sur’atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori oʻsish sur’atlari Qoʻshkoʻpir (139,6 %) Bogʻot (106,1 %) tumanlari va Xiva shahrida (105,2 %) qayd etildi,

**Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




| Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar | Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar |
|---|---|
| 01 Yangiariq | Urganch sh 01 |
| 02 Bogʻot | Hazorasp 02 |
| 03 Yangibozor | Qoʻshkoʻpir 03 |

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,9 %i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,3 %i – fermer xo‘jaliklariga, 6,8 %i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda,

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi,



***Ma‘lumot uchun:***

*Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining ulushi quyidagicha:*

- ✓ *Sog‘ib olingan sut* — *94,6 %*
- ✓ *Go‘sht (tirik vaznda)* — *88,7 %*
- ✓ *Qirqib olingan jun* — *75,7 %*
- ✓ *Tuxum* — *70,7 %*
- ✓ *Sabzavotlar* — *18,4 %*

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (13,8 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo‘shko‘pir tumanida (29,6 %) qayd etildi,

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Hazorasp tumanida (2,5 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qo‘shko‘pir tumanida (66,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,42 %) kuzatildi,

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi

### Dehqonchilik mahsulotlari




### Chorvachilik mahsulotlari




| Fermer xo‘jaliklari | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar |
|---|---|---|



# Dehqonchilik mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Yangiariq (15,9 %), Bog‘ot (11,7 %), Yangibozor (8,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi,




Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-mart



***154,3***
mlrd. so‘m
O‘sish surati

***117,3 %***



Qishloq xo‘jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da






Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari o‘sish sur’atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o‘sish sur’atlari Yangibozor (2,2 m), Bog‘ot (197,5 %), Xiva (144,3 %) tumanlariga qayd etildi,

# Sabzavotlar

| | |
|---|---|
| Fermer xo‘jaliklari | 141 tonna |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 849 tonna |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3633 tonna |

Xo‘jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 3633 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 78,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 9,3 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 0,6 % va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 48,0 % o‘sish qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish




Hududlar o‘rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Yangiariq va Bog‘ot tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 39,2 % va 31,3 %ga teng bo‘ldi, Shuningdek, yuqori ulush Urganch (8,9 %) va Xonqa (10,0 %) tumanlarida qayd etildi,

Past ko‘rsatkichlar Qo‘shko‘pir tumanl va Xiva shahrida (0,7 %) kuzatildi.

Yuqori o‘sish sur’atlari Bog‘ot (106,4 %), Yangibozor (105,2 %) va Gurlan (103,3 %) tumanlarida qayd etildi.



# Chorvachilik mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Qo‘shko‘pir (12,4 %), Urganch (11,3 %), Xiva (10,2 %) va Gurlan (10,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi,

Xorazm viloyati
2023- yil yanvar-mart



***3040,0***
mlrd. so‘m
O‘sish surati

***104,2 %***




Qishloq xo‘jaligining umumiy hajmdagi ulushi, % da






Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o‘sish sur’atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o‘sish sur’atlari Qo‘shko‘pir (12,4 %) tumanida qayd etildi,

**2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari**

| | ***Barcha toifadagi xo'jaliklar*** | | ***shu jumladan:*** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo'jaliklari* | | *dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari* | | *qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *tonna* | *o'sish sur'ati % da* | *tonna* | *o'sish sur'ati % da* | *tonna* | *o'sish sur'ati % da* | *tonna ,* | *o'sish sur'ati % da* |
| Go'sht (tirik vaznda) | 42 526 | 110,2 | 918 | 102,3 | 37 705 | 100,6 | 3903 | 16,7m |
| *Sut* | 211 417 | 100,3 | 10 050 | 101,0 | 199 971 | 100,2 | 1 396 | 101,7 |
| Tuxum mln, dona | 96 468 | 95,6 | 9732 | 107,6 | 68 236 | 101,9 | 18 500 | 74,2 |
| Baliq | 2669,9 | 2,0 m | 1754,6 | 2,9m | 190 | 99,0 | 725,3 | 137,1 |

2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 2,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sut yetishtirishning 4,8 %i fermer xo'jaliklariga, 94,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, olingan tuxumning 10,1 %i fermer xo'jaliklariga, 70,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, ovlangan baliqlarning 65,7 %i fermer xo'jaliklariga, 7,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,2 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

# Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 42,5 ming t. go‘sht (2022– yilning yanvar– martiga nisbatan 10,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,7 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

## Hududlar bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 211,4 ming t. sut (2022– yilning yanvar– martiga nisbatan 0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,6%i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Hududlar bo‘yicha sut yetishtirish, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 96,4 mln dona tuxum (2022– yilning yanvar– martiga nisbatan 4,4 %ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,7 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Hududlar bo‘yicha tuxum yetishtirish, ming dona



# Baliq

**Hajmi,tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 2669,9 tonna (2022– yilning yanvar– martiga nisbatan 102,5 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 65,7 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

## Hududlar bo‘yicha ovlangan baliqlar, tonna



## 2023- yilning 1- aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | **Barcha toifadagi xo'jaliklar** | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo'jaliklari* | | *dehqon va tomorqa xo'jaliklari* | | *qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *ming bosh* | *o'sish sur'ati % da* | *ming bosh* | *o'sish sur'ati % da* | *ming bosh* | *o'sish sur'ati % da* | *ming bosh* | *o'sish sur'ati % da* |
| Yirik shoxli qoramollar | 958,9 | 101,0 | 71,8 | 104,4 | 874,1 | 100,2 | 13,0 | 152,9 |
| *shundan,* sigirlar | 364,9 | 101,3 | 29,3 | 103,5 | 330,8 | 100,5 | 4,8 | 171,4 |
| Qo'y va echkilar | 489,7 | 105,1 | 76,3 | 110,4 | 385,6 | 100,3 | 27,8 | 2,2m |
| Otlar | 5,8 | 100,9 | 0,7 | 104,8 | 5,0 | 100,1 | 0,1 | 127,3 |
| Parrandalar | 6 548,3 | 108,3 | 960,3 | 109,7 | 3 942,2 | 101,0 | 1 645,8 | 130,1 |

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'yva echkilarning umumyiy sonidan 15,6 %i fermer xo'jaliklariga, 78,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, otlarning umumiy sonidan 13,1 %i fermer xo'jaliklariga, 86,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari ga, 1,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 14,7 %i fermer xo'jaliklariga, 60,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari ga, 25,1 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi,

# Yirik shoxli qoramollar












2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 958,9 mingtaga etdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 9,1 mingtaga (1,0 %) ko‘paydi.

2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha yirik shoxli qoramollar bosh sonlari, ming bosh



# Sigirlar

Soni, ming bosh




O‘sish sur’ati




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 364,9 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 4,9 mingtaga (1,4 %) ko‘paydi.

2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 90,6 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.

## Sigirlar, ming bosh



# Qo‘y va echkilar

Soni, ming bosh




O‘sish sur’ati




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 489,7 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 23,8 mingtaga (5,1 %) ko‘paydi.

2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 78,7 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.

## Qo‘y va echkilar, ming bosh



# Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,8 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 51 boshga (0,9 %) ko‘paydi.

2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 86,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.

## Otlar, bosh


Urganch
1082
Bog'ot
656
Xonqa
608
Shovot
589
Gurlan
544
Xiva
518
Yangibozor
453
Yangiariq
442
Qo‘shko‘pir
399
Hazorasp
243
Tuproqqal'a
232
Xiva sh.
28
Urganch sh.
0

# Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 548,3 mingtaga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 503,5 mingtaga (8,3%) ko‘paydi.

2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 60,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

## Parrandalar, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

• 62-224-64-96